

2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

RAQAMLAR

- Sanoatishlabchiqarishha jmi **29,9 foizgako** paydi.
- Iste'moltovarlarlii shlabchiqarishningo'sishsur'ati - **105,2 foiz**.
- Iste'moltovarlarningjam isanoatishlabchiqarish ha-jmidagiulushi - **40,4 foiz**.

Sanoat tarmoqlarini islohqilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy texnika bazasini mustahkamlanishi natijasida viloyat sanoat ishlab chiqarishining kengaytirilishiga zamin yaratdi.


2018 yilning yanvar-iyunoylari yakunlari bo'yicha jami 1280,3 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilb, o'sish sur'ati 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **129,9 foizni** tashkil etdi.

Bu tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, 2018 yilning yanvar-iyun tegishli davriga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – **322,9%**ni, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari – **161,0%**ni, Ko'mir va lignit qazib olish – **142,9%**ni, Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – **120,5%**ni, Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish – **118,7%**ni, Mettalurgiya sanoati – **118,6%**ni, Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish va yo'qotish bo'yicha xizmatlar – **150,2%**ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2018 yilyanvar-iyun oylarida, Tayyor meal mahsulotlarini (mashina va uskunadan tashqari) ishlab chiqarish (2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan (94,2%), Koks va neftni qayta ishslash mahsulotlari (94,7%), Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish (96,9%) va Kiyim ishlab chiqarish (98,7%)da esa kamayish kuzatilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'ati Tog'-kon sanoati **116,3 foizni**, Qayta ishslash sanoati **133,1 foizni**, Elektr ta'minoti, gaz, bug' etkazib berish va sun'iy iqlim xosil qilish sanoati **103,8 foizni** hamda Suv ta'minoti, oqava suv, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **128,3 foizni** tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (yanvar-iyunoylaridahajmga nisbatan foiz hisobida)




- tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- qayta ishslash sanoati
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Shuni ta'kidlash lozimki, 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizning jami sanoat ishlab chiqarilishi hajmida asosan Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,6 % ulushini), Denov (15,5 %), Sho'rchi (11,2 %) tumanlari va Termiz shahri (17,5 %)ga to`g`ri kelmoqda.


2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi (%)



2018yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishning aholi jonboshiga yuqori hajmi Termiz shahri (1553,6 ming so`m), Jarqo'rg'on (1321,1 ming so`m) tumanlariga to`g`ri keladi. Aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishning eng past hajmi esa Oltinsoy (152,8 ming so`m), Muzrabot (173,9 ming so`m) tumanlarida kuzatilmogda.


2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, mingso`m



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,2 foizni** tashkil etdi. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **72,7 foizni**, nooziq-ovqat mahsulotlarinining ulushi **23,6 foizni** va vino-aroq mahsulotlarining ulushi **3,7 foizni** tashkil qildi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Yanvar-iyun oylarida jami iste`mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami istemol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda)



Hududlar kesimida, iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishi Sherobod (2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur`ati – 132,8%), Denov (108,8%), Termiz (106,1%) tumanlariga eng past o'sishi esa Qumqo'rg'on (100,1%), Angor, Uzun, Jarqo'rg'on (100,2% dan) tumanlarida kuzatilmog'da.

Yanvar-iyunoylarida Surxondaryo viloyatida jami iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi (%)



2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning aholi jon boshiga yuqori hajmi Termiz shahriga (558,2 ming so`m), Denov (336,1 ming so`m), Sho'rchi (321,7 ming so`m) va Termiz (286,7 ming so`m) tumanlariga to`g'ri keladi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri.

Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har taraflama qo'llab-quvvatlash va rag`batlantirish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda kichik biznes sub`ektlari hissasining o'sishida namoyon bo`ldi. Viloyatda 2018 yil yanvar-iyun oylarida sanoat umumiylajmida kichik tadbirkorlik mahsulotlarining ulushi 41,3%ni, sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,2%ni tashkil qildi.

Bunda, Oltinsoy tumani bo'yicha umumiylajmida ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulushi 100,0%ni (o'sish sur'ati 104,3%), Boysun tumanida 99,9%ni (107,5%), Termiz tumanida 98,8%ni (102,0%) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi, umumiylajmida ishlab chiqarish hajmiga nisbatan (foizda)




Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o'sishining omillaridan biridir

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan 138,9 mln. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bularning barchasi hududiy loyihalardan iborat.

2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish
dasturining asosiy ko`rsatkichlari**



Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini rag`batlantiruvchi omillar

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirilishi, viloyat sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlarni yaratdi. Shu bilan birga, sanoatning yanada barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

- ilg`or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriyetish hisobiga mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish;
- tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliylashtirish darajasini to`xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o`rinlarini yaratishga to`sinqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar importini qisqartirish;
- mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, ma'naviy eskirgan, ko`p harajatli texnologiyalar o`rniga yangi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib korxonaning to`liq quvvatda ishlashini ta'minlash;
- kichik biznes sub`ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har taraflama qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish.

**Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov
Aloqa telefoni: (0376) 223-07-24